ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2025/№ 1,1

Termiz – 2025

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.01.2025
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
www.philologicalresearch.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI:
Bekpo‘lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)
O‘ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Normat Yo‘ldoshev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Asqar Eshmo‘minov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Ahad Shukurov, (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Gulchehra Begmatova,(PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Nargis Kurbanazarova, (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Zaynura Qodirova, (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Dilrabo Ergasheva, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.01.2025
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
www.philologicalresearch.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Ахад Шукуров, (PhD), доцент (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, (PhD), доцент (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, (PhD), доцент (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, (PhD), доцент (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Зайнура Кадирова, (PhD), доцент (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Дильрабо Эргашева, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.01.2025
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
www.philologicalresearch.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, PhD (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, PhD (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, PhD (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, PhD (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, PhD (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, PhD (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, PhD (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, PhD (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, PhD (Uzbekistan)
Zaynura Kadirova, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, PhD (Uzbekistan)
Dilrabo Ergashova, PhD (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

М У Н Д А Р И Ж А

TILSHUNOSLIK

AMINOVA DILNOZA
Brending va imij tushunchalarining nazariy tavsifi 7

QODIROV UMARJON AKRAMJON O‘G‘LI
Shonazar Shoabdurahmonov Qo‘qon shevasi xususiyatlari haqida 11

NAZAROVA ZIYODA KATTAYEVNA
Frazeologik birliklarni idiomalardan farqlashning muhim ahamiyati 14

QIYOMIDINOVA NILUFAR QAXRAMON QIZI
Ijtimoiy tarmoqlarning lingvistik dinamikasi:
evolyutsiya, o‘ziga xoslik va raqamli davr ta’siri 17

BO‘RONOV NAZIM MUSTAFAQULOVICH
Feyk yangiliklarga qarshi kurashishda milliy va xalqaro tajriba 22

MUSURMONQULOV ADHAM ABDURASHID O‘G‘LI
Tilshunoslikda uyadosh so‘zlar lug‘atini
yaratishning maydon nazariyasidagi talqini 27

SOBIROVA FERUZA ISLOMJON QIZI
Saylovoldi dasturlarda nutqiy manipulyatsiya.....30

XOLMATOVA GO‘ZAL BAXODIROVNA
Internet-media ergonimlarining struktur-semantik tahlili
(o‘zbek va ingliz tillarida) 35

ASHUROV BOBIR SHAKIROVICH
Sud-ekspertiza lingvistikasi: nazariy asos va metodologik talqin 38

ROZUMBETOVA XILOLA UMAR QIZI
To‘rtko‘l tumani oykonimlarining leksik-semantik tahlili.....42

TOJIBOYEV ILXOMJON USMONOVICH
Lingvomadaniyatshunoslik antropotsentrik paradigmaning
asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida 47

МУНДАРИЖА

ADABIYOTSHUNOSLIK

JEPBAROWA SAÝAT KURBANMIRATOWNA
Halk dessanlarynyň beýik şahyr Magtymguly pyragy
döredijiligine çeperçilik täsiri 49

KODIROVA SAODAT ABDIRAXIMOVNA
Badiiy asarlardagi maqollarning evolyutsiyasi
(“Zarbulmasal” asari misolida) 52

АБДУЛЛАЕВ МАХМУД АХМАТОВИЧ
Таджикское литературоведение о вкладе Садриддина Айни
в изучении узбекско-таджикских литературных связей 55

DUSIMBETOVA NARGIZA BAXTIYAROVNA
Bo‘lajak jurnalistlarning transmedia ko‘nikmalarini shakllantirish
va o‘rgatish jarayonining metodikasi 58

TA’LIM

МАМЕДОВА НАРГИЗА ЗИРАДДИНОВНА
Современные методы преподавания русского языка 58

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2025; 1
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

FEYK YANGILIKLARGA QARSHI KURASHISHDA MILLIY VA XALQARO TAJRIBA

Bo'ronov Nazim Mustafaqulovich,
O'zbekiston davlat jahon tillari unversiteti mustaqil tadqiqotchisi

Amerikalik olimlar tadqiqotlariga ko'ra, odam reklama xabariga e'tibor berish uchun uni kamida uch marotaba ko'rishi tinglashi kerak. Xususan, H. Kragmanning fikricha, "bir marta ma'lumotni idrok etish uchun, ikki marta – uni tushunish uchun va uch marta — reklama xabariga munosabatni shakllantirish uchun yetarli ekan"[1].

Yuqorida tavsiflangan jarayon "qor to'pi effekti" sifatida quriladi: inson ongiga g'oya singdiriladi, u asta-sekin tobora ko'proq yangi tafsilotlar, mutaxassislarning sharhlari bilan kattalashadi. Inson o'qigan, ko'rgan va eshitgan narsalari asosida mavzu bo'yicha fikr shakllanadi, uni o'zgartirish yoki rad etish esa qiyinlashadi.

"Qor to'pi effekti" feyk yangiliklarning tarqalishi uchun ham dolzarbdir. Shu bois Liza Fatsio va uning hamkasblari soxta yangiliklarga raddiya yozishda uning nomini yoki tafsilotlarini yana takrorlash, faqat o'quvchilar ongida qayta yozgandek soxta hikoyani asl nusxasi bilan almashtirish kerak, degan xulosaga kelishadi.

Ijtimoiy tarmoqlardagi feyk yangiliklar ularni rad etishdan ko'ra kengroq va tezroq tarqaladi. Massachusets texnologiya institutining tadqiqotchilari[2] 2006 -2017-yillar davomida Twitterda 126 ming chin va soxta yangiliklar tarqatilishini o'rganishdi va eng mashhur soxta yangiliklar 10 ming foydalanuvchini qamrab olganini aniqlashdi. Haqqoniy yangiliklar faqatgina 1000 kishining nazariga tushgan xolos. Tadqiqotchilar soxta xabarlarning bunday mashhurligini ularda keltirilgan ma'lumotlarning "yangiligi" bilan izohlaydilar.

Genta universiteti olimlari Jonas De Kersmaiker va Arne Rotes[3] tomonidan o'tkazilgan tadqiqotga ko'ra, yuqori darajadagi bilim qobiliyatiga ega odamlar soxta yangiliklarga rad javobini o'qib, voqea haqidagi fikrlarini o'zgartirishga qodirligi, bilish qobiliyati past odamlar uchun esa birinchi taassurotlarni o'zgartirish qiyinroqligi aniqlashgan.

Bu yerda **post truth,** ya'ni **post haqiqat** hodisasini eslab o'tish joiz. Oksford lug'atida berilgan ta'rifga ko'ra, "post haqiqat – bu obyektiv faktlar hissiyotlar va shaxsiy e'tiqodlarga murojaat qilishdan ko'ra, jamoatchilik fikrini shakllantirishda kamroq ahamiyatga ega bo'lgan vaziyatlardir"[4]. Soxta yangiliklar to'g'ridan-to'g'ri odamlarning his-tuyg'ulariga qaratiladi, jamoatchilik fikrini shakllantirishga yordam beradi, ya'ni post haqiqatning paydo bo'lishi uchun sharoit yaratadi. Avval ta'kidlab o'tilganidek, obunachilarda ularga nisbatan ishonchdan ko'ra, soxta xabarlarni rad etish qiyinroq hisoblanadi.

Amerikalik olimlar soxta yangiliklar bo'yicha o'z tadqiqotlarida ijtimoiy tarmoqlar, xususan Twitter va Facebookka katta o'rin berishgan. Ular foydalanuvchining ijtimoiy-iqtisodiy holati va uning yolg'on ma'lumotlarga ta'siri o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganishgan. Jumladan, amerikalik olimlar Endryu Xess, Jonatan Nagler va Joshua Tak o'z tadqiqotlari doirasida ijtimoiy tarmoqlarda soxta yangiliklar tarqatish faoliyati foydalanuvchilarning yoshiga bog'liqligini isbotladilar. Ular o'z tadqiqotlarida "soxta xabarlar ko'pincha 65 yoshdan oshgan Facebook foydalanuvchilari tomonidan tarqatilishini isbotladilar. Nafaqaxo'rlar orasida esa 18 yoshdan 29 yoshgacha bo'lgan odamlarga qaraganda ijtimoiy tarmoqlarda soxta yangiliklar bilan o'rtoqlashish ehtimoli yetti baravar ko'proqligi aniqlangan"[5].

Zamonaviy Internetning cheksiz imkoniyatlari ax-

[1] Назайкин А.Н. Современное медиапланирование. Учебное пособие. – Солон-пресс, 2016. – С. 86.

[2] Soroush Vosoughi, Deb Roy and Sinan Aral. The spread of true and false news online. Science 359 (6380), 1146-1151. [Электронныйресурс:https://science.sciencemag.org/content/359/6380/1146/tab-pdf]

[3] De Keersmaecker J., Roets A. 'Fake news': Incorrect, but hard to correct. The role of cognitive ability on the impact of false information on social impressions. Intelligence. Volume 65, November 2017, Pages 107-110. URL

[4] . Word of the Year 2016 is... [Electronic resource]. URL: https://en.oxforddictionaries.com/word-of-the-year/word-of-the-year-2016.

[5] Тихонова М. Стратегия противодействия распространению ложных новостей в социальных сетях. ВКР. –Москва, 2019. – С. 21.//Word of the Year 2016 is... [Electronic resource]. URL: https://en.oxforddictionaries.com/word-of-the-year/word-of-the-year-2016.

borotning haqqoniyligi tamoyiliga jiddiy zarar ko‘rsatmoqda. Tadqiqotchilarning[1] fikriga ko‘ra, “feyk yangiliklar”ning keng yoyilishiga ikki omil sabab hisoblanadi: **1) miqdoriy** omil: internetda tekshirishning imkoni bo‘lmaydigan juda katta miqdordagi axborot zaxirasi mavjudligi;

2) sifat omili – texnologik omil bo‘lib, unda yangi texnologiyalar tufayli axborotni yig‘ish va saqlash vositalari, shuningdek, uni ishlab chiqaruvchi subyektlar va uzatuvchi kanallar ko‘payib ketganligidir. Aynan shu sabablar an’anaviy OAVning maqomi va mavqeyini tushirib yuborgan.

Hozirgi davrda feyk xabarlarni yaratish va tarqatish bo‘yicha kuchli texnik vositalarning yaxshi rivojlanganligi tufayli niyati buzuq “storiteller”lar hamisha zamonaviy texnologiyalardan foydalanib, real voqelikka mos keladigan va haqiqatga o‘xshaydigan yolg‘on materiallarni yaratishni o‘rganib olganlar. Masalan, 2019-yil 20-aprel kuni Facebook ijtimoiy tarmog‘ida “Namangan shahrida Soliq inspeksiyasi xodimlari tadbirkorni hujjatini qo‘shni kafeda taftish qilmoqda!” mazmunida xabar tarqalgan edi. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi Matbuot xizmati mazkur xabarda keltirilgan holatlarni o‘rganib, unga o‘z munosabatini bildirdi:

Mazkur holat mas’ul mutaxassislar tomonidan o‘rganib chiqildi. 2019-yil 20-aprel kuni Namangan shahar davlat soliq inspeksiyasi “Qo‘shimcha daromadlarni aniqlash va huquqbuzarliklarni profilaktika qilish bo‘limi” jismoniy shaxslar bilan ishlash sho‘basi Davlat soliq katta inspektorlari A.Samatov va N.Karimovlar tomonidan Namangan shahar, “Haqiqat” MFY, Boburshoh ko‘chasi, 88-uyda joylashgan, fuqaro H.Rahmonovga tegishli savdo shoxobchasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 26-iyundagi “Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq, soliq to‘lovchini pasportlashtirish tadbiri o‘tkazilgan.

Ma’lum bo‘lishicha, halol tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash va shaffofligini ta’minlash uchun ko‘mak ko‘rsatish maqsadida tushuntirish ishlari olib borilgan.

Pasportlashtirish – tekshirish emas! U davlat soliq xizmati organlari tomonidan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni hisoblash uchun asos bo‘ladigan ko‘zdan kechirish dalolatnomasi rasmiylashtiriladigan profilaktik tadbir. Bunda soliq to‘lovchining moliya-xo‘jalik faoliyatiga aralashishga, ya’ni tekshirishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Ko‘rsatib o‘tilgan vajlar maxsus guruh tomonidan o‘rganilganda o‘z tasdig‘ini topmadi. Davlat soliq xizmati xodimlari hamda tadbirkor o‘rtasida hech qanday kelishmovchilik sodir bo‘lmagan.

Muallif va mavzu yuzasidan qoldirilgan postda DSXO xodimlarining obro‘sizlantirish va tuhmat qilish alomatlari borligi ma’lum bo‘ldi. Davlat soliq qo‘mitasi fuqarolarning tizimiga oid taklif-mulohaza va fikrlarini qadrlaydi hamda sohada olib borilayotgan islohotlar samaradorligini ta’minlashda jamoatchilik bilan hamkorlik qilishga doim tayyor, lekin faqat tuhmat bilan emas!

Eslatib o‘tamiz, yolg‘on ma’lumot yetkazish, tuhmat belgilangan tartibda javobgarlikka sabab bo‘ladi, deydi DSQ Matbuot xizmati[2].

Axborot jarayonlarining globallashuvi jarayonida bunday feyklarning avj olishi, bir tomondan, ommaviy axborot vositalari xodimlarining professionalizmiga, boshqa tomondan esa, axborot iste’molchilarining mediasavodxonligiga bog‘liq bo‘lgan jiddiy muammoga aylanib qoldi.

Internet va ijtimoiy medianing hozirgi davrdagi taraqqiyoti har bir axborot iste’molchisini ayni bir vaqtda ham axborot tarqatuvchi, ham xalq jurnalisti rolini bajarishi uchun keng va cheksiz sharoitlar yaratib berdi. Shu bois so‘nggi yillarda “yangilik” yaratishda noprofessionallar katta imkoniyatlarga ega bo‘lib qoldilar. Inson birgina barmoq harakati bilan kelib chiqishi shubhali xabarni minglab odamlarga yetkazishi mumkin. Shunday sharoitda har bir fuqaro o‘zi bilmagan holda halokatli dezinformatsiya zanjirining bir halqasiga aylanib qolishi holatlari tez-tez uchramoqda.

Bunga misol tariqasida 2012-yilda Qrimda yuz bergan suv toshqini haqidagi Yuliya Antopropovaning “Live Journal”, “Facebook”, “V Kontakte” da e’lon qilgan Neberjayev suv omborining ochilishi haqidagi ma’lumotlarini[3] keltirish mumkin. Bu xabar katta shov-shuvlarni keltirib chiqardi: “*Agar ochilmasa, Novorossiysk suvini to‘sadi, agar ochilsa, Qrim yuvilib ketadi”*. Tasdiqlanmagan ma’lumotlarning takrorlanishi odamlar orasida vahimani yuzaga keltirdi, uni to‘xtatish uchun esa davlat tomonidan ko‘p sa’y- harakatlar sarflash kerak bo‘ldi.

Moskva Politexnika universiteti matbuot va Media sanoati Oliy maktabi professori S.Raspopova hamda Vageningen universiteti va Niderlandiyadagi tadqiqot markazining amaliy kommunikatsiyalar magis-

[1] Муратова Н. Fake news: медиада дезинформация [Матн]: қўлланма / Н. Муратова, Н. Тошпулатова, Г. Алимова. – Ташкент: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2020.

[2] info@terabayt.uz. DIMAX. 22.04.2019 .

[3] Распопова С. Богдан Е.. Фейковые новости: Информационная мистификация учебное пособие для вузов. – М.: Аспект Пресс, 2018. – С. 112.

tri Ye.Bogdanlarning “Feyk yangiliklar: informatsion mistifikatsiya”[1] kitobida feyk yangiliklarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladigan jurnalistlar tomonidan yo‘l qo‘yiladigan xatolar ko‘rsatib o‘tilgan.

2018-yil oxirida YUNESKO jurnalistlar uchun “Jurnalistika, feyk yangiliklar va dezinformatsiya” deb nomlangan qo‘llanma[2]ni chop etdi. Unda jahon ommaviy axborot vositalarida Fakt-cheking (faktlarni tekshirish)jarayoni, ijtimoiy tarmoqlardagi kontentni tekshirish, mediasavodxonlik, onlayn zo‘ravonlikka qarshi kurash va boshqa masalalar bo‘yicha jahon bo‘ylab ilg‘or amaliyotlar tahlili o‘rin olgan.

Rossiya ilmiy doiralarida esa ijtimoiy tarmoqlarda yolg‘on ma’lumotlarning tarqalishi masalalari endi o‘rganila boshlandi. Bunga, ayniqsa 2022-yilda rus-ukrain urushi davomida tarqatilgan feyk xabarlar va dezinformatsiyani aniqlash zaruriyati katta turtki bo‘ldi.

Pew Research tadqiqotiga[3] ko‘ra, aksariyat amerikaliklar feyklarni payqab olishga qodir ekanliklariga ishonishadi. Biroq, Ontariodagi G‘arbiy universitetning til va axborot texnologiyalari tadqiqotlari laboratoriyasining dotsenti V. Rubin Internet foydalanuvchilari olgan ma’lumotlarini haqqoniyligini ongli ravishda tekshirmasliklarini ishonch bilan e’tirof etadi.

Ko‘p mamlakatlarda feyk yangiliklar muammosini tartibga solish orqali muammoni hal qilishga harakat qilinmoqda. Masalan, 2018-yilning yozida Belarusda OAV to‘g‘risidagi qonunga tuzatishlar qabul qilindi, bu hukumatga internetda yolg‘on ma’lumotlarni tarqatayotgan odamlarni javobgarlikka tortish imkonini beradi[4].

Xitoyda feyklarni tarqatish uchun jinoiy javobgarlik joriy etildi. Ijtimoiy tarmoqlar faqat rasmiy ro‘yxatdan o‘tgan OAVdan olingan yangiliklarini joylashtirishi mumkin. Mikrobloglar mualliflari mish-mishlarni yoritishi va rad etishi kerak. Xitoyda, shuningdek, fuqarolarning ishonchsizliklariga sabab bo‘lgan yangiliklardan shikoyat qilishlari mumkin bo‘lgan mobil ilova ham mavjud[5].

Xorvatiyada hukumat aholi media savodxonligini oshirishga qaratilgan qonun loyihasini ishlab chiqmoqda. Ushbu qonunda dezinformatsiyaga qarshi kurashish uchun majburiy mexanizmlar mavjud emas[6].

Hindistonda hukumat feyk yangiliklar tarqalishini to‘xtatish uchun vaqti-vaqti bilan Internetni o‘chirib turadi. Mamlakatda ijtimoiy tarmoqlarda tarqatiladigan soxta yangiliklar bazasi mavjud. Ayrim Shtatlarda fuqarolar jamiyatda qo‘rquv yoki tashvish tug‘diradigan noto‘g‘ri ma’lumotni nashr etgani uchun qamoqqa olinishi mumkin[7].

Indoneziyada hukumat jamiyat uchun zararli deb hisoblangan kontentni nashr etadigan veb-saytlarni bloklaydi. Indoneziya hukumati Internetda noto‘g‘ri ma’lumotni aniqlashga maqsadida ijtimoiy media trafigini tun-u kun kuzatib boradigan guruh faoliyat yuritadi. Bundan tashqari, mamlakatda odamlar ehtimoliy yolg‘on yangiliklar haqida xabar berishlari va uning rost yoki rostmasligini bilib olishlari mumkin bo‘lgan veb-sayt ishga tushirilgan. Italiyada fuqarolar dezinformatsiya haqida xabar berishlari mumkin bo‘lgan portal yaratilgan. Agarda soxta ma’lumotlarning tarqalish fakti tasdiqlansa, u holda ularning muallifi qamalishi mumkin[8].

Keniyada bila turib chalg‘ituvchi ma’lumot almashgan odamlar 50000 AQSH dollarigacha jarimaga tortilishi yoki ikki yilgacha qamalishi mumkin.

Malayziyada soxta xabar tarqatish olti yilgacha ozodlikdan mahrum qilish va 128 ming AQSH dollari miqdoridagi jarima bilan jazolanadi[9].

Singapurda hukumat Qonunchilik darajasida dezinformatsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha cheklovlarni joriy etish va aholining media savodxonligi darajasini oshirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqqan.

Janubiy Koreyada feyklarning Internetda tarqalishini cheklaydigan qonun ishlab chiqilmoqda.

AQSHda ijtimoiy tarmoqlar reklama nusxalarini saqlashi, nashr etishi va kim to‘lashini va reklama kompaniyalari orqali dezinformatsiya tarqatmasligi uchun qancha pul to‘lashini kuzatib borishi kerak.

[1] Распопова С..Богдан Е. Фейковые новости: Информационная мистификация учебное пособие для вузов. – М.: Аспект Пресс, 2018. – 112 с.

[2] UNESKO (1999) Recommendations Addressed to the United Nations Educational Sciyentific and Cultural Organization UNESCO. In Education for the Media and the Digital Age Viyenna pp 273-274.

[3] Rubin V. Deception Detection and Rumor Debunking for Social Media. The SAGE Handbook of Social Media Research Methods, Chapter: Deception Detection and Rumor Debunking for Social Media, Publisher: Sage, Editors: Luke Sloan, Anabel Quan-Haase, pp.342-364. URL https://www.researchgate.net/publication/307858255_Deception_Detection_and_Rumor_Debunking_for_Social_Media

[4] Rubin V. O‘sha manba.

[5] Тихонова М. Стратегия противодействия распространению ложных новостей в социальных сетях. ВКР. Москва 2019. // www. allbestru/.

[6] Тихонова М. Ўша манба.

[7] Тихонова М. Ўша манба.

[8] Тихонова М. Ўша манба.

[9] Тихонова М. Стратегия противодействия распространению ложных новостей в социальных сетях. ВКР. Москва 2019. // www. allbestru/.

Kaliforniya kabi ba'zi Shtatlardagi maktablarda media savodxonligi o'qitiladi.

Avstraliyada xorijiy dezinformatsiya kampaniyalarini aniqlash va ularni rad etish uchun hukumat guruhi tashkil etilgan. Bangladeshda ijtimoiy tarmoqlarda hukumatga qarshi yolg'on xabar tarqatgan kishi qamoqqa tushishi mumkin.

Braziliyada saylovoldi davrida soxta yangiliklarni aniqlash va rad etish uchun maxsus guruh tashkil etilgan. Aniqlangan qoidabuzarliklar uchun jazolar jarimalardan sakkiz yilgacha ozodlikdan mahrum qilishgacha joriy etilgan. Bundan tashqari, Braziliya hukumati Facebook va Google bilan shartnoma tuzib, ushbu platformalarga "uchinchi shaxslar tomonidan yaratilgan dezinformatsiyaga qarshi kurashish" majburiyatini yuklagan.

Fransiya saylov kampaniyalarida, xususan, har qanday ovoz berishdan oldingi uch oy davomida kontentni nashr etishga qat'iy cheklovlar qo'yildi. Qonunchilik organlarga ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqatilgan soxta kontentni olib tashlash va hatto uni nashr etadigan saytlarni blokirovka qilish vakolatini beradi.

2019-yilning mart oyida Rossiyada "Axborot, axborot texnologiyalari va axborotni himoya qilish to'g'risida" gi qonunga va feyk yangiliklarni tarqatish uchun jarimalarni nazarda tutadigan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi Kodeksga (KoAP) o'zgartirishlar kiritilgan. Mazkur me'yoriy-huquqiy hujjatlarda feyk ma'lumotlarni birinchi marta tarqatganligi uchun fuqarolarga 30 mingdan 100 ming rublgacha; mansabdor shaxslarga 60 mingdan 200 ming rublgacha; yuridik shaxslar uchun 200 mingdan 500 ming rublgacha jarima solinishi mumkinligi e'tirof etilgan. Takroriy qoidabuzarliklar uchun, shuningdek, yolg'on ma'lumotlar muhim obyektlarning ishlashiga xalaqit bergan bo'lsa, jarimalar ko'payadi. Fuqarolar 100 mingdan 300 ming rublgacha; mansabdor shaxslar — 300 mingdan 600 ming rublgacha; yuridik shaxslar — 500 mingdan 1 million rublgacha jarima to'lashlari kerak bo'ladi.

Agar feyk xabarlarning tarqalishi "odamning o'limiga, inson salomatligi yoki mulkiga zarar yetkazilishiga, jamoat tartibini ommaviy ravishda buzilishiga va (yoki) jamoat xavfsizligiga, hayotni qo'llab-quvvatlovchi obyektlarining ishlashini to'xtatishga" [1] olib kelgan bo'lsa, jarimalar fuqarolar uchun – 300 mingdan 400 ming rublgacha; mansabdor shaxslar uchun – 600 mingdan 900 ming rublgacha; yuridik shaxslar uchun – 1 milliondan 1,5 million rublgacha bo'lgan summani tashkil qiladi/ Bundan tashqari, Rossiya tashqi ishlar vazirligining veb-saytida xorijiy ommaviy axborot vositalarida e'lon qilingan Rossiya Federatsiyasi haqidagi yolg'on ma'lumotlarni rad etuvchi maxsus bo'lim ham yaratilgan.

Qozog'istonda ataylab yolg'on axborot tarqatish maksimal yetti yil ozodlikdan mahrum etish bilan jazolanadi.

O'zbekistonda ham feyk xabarlarni tarqatgan fuqarolar jinoiy javobgarlikka tortilishi, qamoqqa olinishi mumkin. "O'zbekiston Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslariga va O'zbekiston ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi[2] qonuniga muvofiq ommaviy axborot vositalarida, telekommunikatsiya tarmoqlarida yoki Internetda mish-mish va feyk ma'lumotlar tarqatgani, shaxsning qadr-qimmatini kamsitgani yoki obro'sizlantirgani uchun 11 million 150 ming so'm, jamoat tartibi yoki xavfsizligiga tahdid soluvchi axborotni tarqatganlik uchun 22 million 300 ming so'm miqdorida jarima solinadi.

Agar jarima solishdan keyin yolg'on axborot tarqatish davom ettirilsa, hokimiyat yana jarimaga tortiladi. Bu safar jarima 89 million 200 ming so'mni tashkil etadi. Shu bilan birga, takroriy jarima uch yilgacha bo'lgan erkinlikni cheklash bilan almashtirilishi mumkinligi xabar qilinadi[3].

Shunday qilib, ko'p mamlakatlarda feyklarga qarshi kurashni barcha yolg'on ma'lumotlarga emas, balki hukumat va amaldagi tuzimlarni haqorat qiladigan ma'lumotlarga qarshi kurash deb tushuniladi. Qonunchilik hujjatlarida axborotning ishonchliligini aniqlashning aniq mezonlari mavjud emas, demak hukumat tasdiqlamagan har qanday yangilik feyk, soxta deb tan olinishi mumkin.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, ba'zi mamlakatlarda feyk yangiliklarga qarshi kurash faqat saylovoldi davrida esga olinadi. Qolgan vaqtlarda esa yolg'on ma'lumot tarqatuvchilar ta'qib qilinmaydi.

Rezyume. Ushbu maqolada fake yangiliklarga qarshi kurashishda turli davlatlar va xalqaro tashkilotlarning tajribalarini o'rganadi. Maqola milliy qonunchilik, media savodxonligi, ijtimoiy tarmoqlarni tartibga solish va xalqaro hamkorlikka asoslangan strategiyalarni tahlil qilib, fake yangiliklarni kamaytirishning samarali usullarini ko'rsatadi. Tadqiqot global miqyosda kurashish tajribalarini o'rganib, yangi yechimlar ishlab chiqish uchun zarur ma'lumotlar beradi.

[1] Закон о фейках.// https://ru.wikipedia.org/ https://rossaprimavera.ru/news/adda91f6

[2] https://sangzor.uz/ozi-nima-gap/

[3] Тихонова М. Стратегия противодействия распространению ложных новостей в социальных сетях. ВКР. Москва, 2019. – С.58. //www. allbestru/.

Resume. This article explores the experiences of various countries and international organizations in combating fake news. The article analyzes national legislation, media literacy programs, social media regulation, and international cooperation-based strategies, highlighting effective methods for reducing fake news. The study provides valuable information for developing new solutions based on global experiences in the fight against fake news.

Резюме. *В этой статье исследует опыт различных стран и международных организаций в борьбе с фейковыми новостями. Статья анализирует национальное законодательство, программы медиа-грамотности, регулирование социальных сетей и стратегии, основанные на международном сотрудничестве, выделяя эффективные методы снижения фейковых новостей. Исследование предоставляет ценную информацию для разработки новых решений на основе глобального опыта в борьбе с фейковыми новостями.*